Murojaatnoma mazmun-mohiyatiga bag’ishlangan targ’ibot tadbiri tashkil etildi

Joriy yil 20-yanvar kuni O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tomonidan Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi mazmun-mohiyatiga bag’ishlangan targ’ibot tadbiri tashkil etildi.

Tadbirni FA bosh ilmiy kotibi G’ayrat Baxadirov olib bordi. G’.Baxadirov tadbirni ochib berar ekan, Murojaatnomada ko’tarilgan asosiy vazifalar, xususan, 2021-yilda fizika va chet tillarini o’rganish ustuvor yo’nalish etib belgilanganligi va buning o’ziga xos jihatlari haqida qisqacha to’xtalib o’tdi.

So’ngra Toshkent Moliya instituti Bank ishi kafedrasi mudiri, professor Akrom Omonov “Murojaatnoma davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishdagi yangi vazifalar” mavzusida ma’ruza qildi. Tadbirda FA Boshqaruv apparati xodimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, Kasaba uyushmasi va Yosh olimlar kengashi raislari, yetakchi olimlar ishtirok etdi, shuningdek, FA tizimidagi boshqa tashkilotlar va hududiy bo’linmalar xodimlariga to’g’ridan-to’g’ri onlayn translyatsiya qilindi.

Tadbirda taqdim qilingan ma’ruzada Murojaatnomada ko’zda tutilgan davlat boshqaruvi idoralari faoliyatini tubdan takomillashtirish, boshqaruv idoralarining hududiy masalalarni hal qilishdagi mas’uliyat va javobgarligi kuchaytirish, mahalliy ijro va vakillik idoralari hamda mahallaning institutsional asoslarini yanada takomillashtirish, korrupsiya qarshi kurashish, jamiyatda ayollarning roli va o’rni, yoshlar masalalariga to’xtalib o’tildi.

Jumladan, professor A.Omonov Murojaatnomada keltirilgan “2021-yilda iqtisodiyotni kamida 5 foizga o’sishini, byudjet defitsiti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 5,4 foizdan oshmasligini ta’minlash”ga to’xtalar ekan, tovar va moliya bozorlarida erkin va sog’lom raqobat muhitini shakllantirish, tadbirkorlar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, kambag’allikni qisqartirish bo’yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, qishloq xo’jaligi hosildorligi va samaradorligini oshirish bu boradagi asosiy vazifalarimizdan ekanligini ta’kidlab o’tdi. Ushbu vazifalarni bajarishda bank tizimida amalga oshiriladigan ustuvor yo’nalishlar haqida o’z fikr-muloahazalarini bildirdi.

Bundan tashqari, ijtimoiy sohani rivojlantirish, diniy bag’rikenglik va millatlararo totuvlik, xavfsizlik, yoshlarni qo’llab-quvvatlash masalalariga ham alohida to’xtaldi.

Tadbir yakunida ishtirokchilar tomonidan berilgan savollarga atroflicha javob berildi.